

PAPER

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH

Abduraxmonova Latofat Abdusalim qizi^{1,*}

¹ Osiyo texnologiyalar universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi Pedagogika fakulteti 25-12 guruh magistranti

* abduraxmonova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar ruhida tarbiyalashning ahamiyati yoritilgan. . Bolalar ongiga milliy o'zlikni anglash, an'analar va ajdodlar merosiga hurmat hissini singdirishning samarali usullari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy o'yinlar, ertaklar va xalq og'zaki ijodining bola shaxsiyati shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Key words: maktabgacha ta'lim ,odob-axloq,tarbiya,metod,milliy qadriyatlar .

1. Introduction

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni o'zligini anglash, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshi inson xarakteri va dunyoqarashining fundamenti qo'yiladigan davrdir.

Muammoning qo'yilishi: Zamonaviy texnologiyalar va G'arb madaniyati ta'siri kuchaygan sharoitda, bolalarda milliy identifikatsiyani qanday saqlab qolish mumkin? Maqolaning maqsadi — milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini aniqlash.

2. Methods

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy tahlil: An'anaviy tarbiya usullari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni solishtirish.Bunda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish,bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun muhim o'zgarishlarni kiritishga yordam beradi.

Kuzatuv: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ma'naviyat xonalari"va milliy burchaklarning samaradorligini o'rganish.Kuzatish mashg'ulotni samaradorligini ta'minlaydi.Agar kuzatish metodi bolalarda birinchi marotaba o'tkazilayotgan bo'lsa bolalarni 3-4 daqiqa ma'naviyat xonasida yoki milliy burchak oldida qoldiriladi va bolalarni qiziqishi

Compiled on: February 16, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

qandayligi ,ularni bu ob'ekt qanchalik hayratga sola oldi ularni kuzatish davomida ularning yoshiga mos har xil savollar berib bolani qiziqishini ortirish dunyo qarashini kengaytirish badiiy tasavvurini oshirib borishi lozim. Bunda tarbiyachi muhim rol o'ynadi. U yuksak bilim tajriba va pedagogik mahoratga ega bo'lishi shuning bilan birga tarbiyachi milly libos kiyib mashg'ulotni miliy ruhda olib borsa maqsadga muvofiqdir. Kuzatish davomida topshiriqlar ham berib borishi va milliy qadriyatlarimiz haqida so'zlab berishi darkor.

Suhbat: Tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida milliy qadriyatlarining oila va bog'chadagi uzviyligi bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish. Bunda bolalarni oilada ham milliy qadriyatlar bobo, buvilariga hurmat tuyg'usini oshirish, qo'shnilariga yordam berish hissini o'ug'otish, ota-onasiga kichik bo'lsa ham ko'mak berishga intilishi

3. Results

Ikkita ta'lim muassasasi ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarni o'rgatishda eng yuqori natija beruvchi vositalar quyidagilar

| Xalq og'zaki ijodi | Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, laparlar, masallar: Nutq o'sishi va axloqiy tushunchalar. Bu bolalrni fikrlashi va tasavvurini oshirishda hamda ijodiy qarashini o'zgartirishda yordam beradi. Maqollar: "Ona yurtning — oltin beshiging" Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l" kabi maqollarni mashg'ulotlar davomida qo'llash, bolaning nutqini boyitadi va qadriyatlarni qisqa, lo'nda mazmunda tushunishga yordam beradi. Topishmoqlar esa nutq o'stirish bilsn birgalikda topqirlik, ilg'orlik, tez fikrlash kabilarni o'rgatadi. Shuning bilan birga xalq og'zaki ijodi o'tmish va ajdodlar haqida ma'lumot beradi. Ularga nisbatan hurmat ruhida yo'g'rilgan laparlar, afsonalar ,matallar bolalarda hurmat tuyg'usini oshiradi.

Milliy o'yinlar | "Oq terakmi, ko'k terak" "To'p olib qochar", "Lafto" "Lanka": Jismoniy faollik va jamoaviy ruhda tarbiyalaydi. Tezlik ,chaqqonlik, do'stlarga hurmat, jamoaviy birdamlik, bolaning chiniqishi zamonavi spirtga qiziqishi ortishiga olib keladi. Milliy va zamonaviy o'yinlarni birgalikda olib borilishi ham ajdodlarga hurmat hamda kelajak uchun keraklidir. Oq terakmi, ko'k terak": Bu o'yin bolalarda jamoada birlashish, o'z guruhini himoya

qilish va sog'lom raqobat tuyg'usini uyg'otadi.

| Urf-odatlar | "Navro'z" Hosil bayrami "tadbirlari" Varrak sayli ", "Sumalak" Argumchoq uchish: Milliy madaniyatga hurmat belgisidir. Urf -odatlarimiz milliy qadriyatlarimiz asosi desa mubolig'a bo'lmaydi. Yasharish fasli kelinchagi bo'lmish "Navro'z" ayyomi butun ta'lim muassasasida nishonlanishi lozim Varrak uchirish": Bu an'ana bolalarda tabiatga muhabbat va erkinlik hissini shakllantiradi. San'at | Kashtachilik, to'qimachilik, zardo'zlik, popurchilik, kulolchilik elementlari | Estetik did va mayda motorikani rivojlantirishga yordam beradi.

4. Discussion

Biz o'tkazgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlarimiz oddiy o'tmish yoki shunchaki tarix emas, balki tarbiya uchun muhim qo'llanma hamdir. Masalan, ertak va afsonalardagi "Go'ro'g'li" hamda "Alpomish" yoki "To'maris" siymolari bolada botirlik va sadoqat tushunchalarini shakllantiradi. "Susambil" ertagi esa hamdardlik , do'stlik, jamoaviy birdamlik o'zaro hurmat va ishonsh, mehnatsevarlik kabi hissiyotlarni o'yg'otadi. Biroq, faqatgina nazariy bilim berish yetarli emas. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, "Usta-shogird" an'anasi asosida amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish (masalan, milliy taomlar tayyorlashni kuzatish yoki loydan buyumlar yasash) bolada qadriyatlarga nisbatan hissiy bog'liqlikni kuchaytiradi. Milliy musiqalarimiz sokinlik, zavq, milliy cholg'uchilikka nisbatan hurmat va o'rganishga intilish bag'ishlaydi.

Xulosa

Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlarni singdirish — bu kelajakdagi komil inson poydevoridir. Bu jarayon tizimli ravishda, o'yin texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi lozim. Shundagina biz o'zligini taniydigan, ajdodlar merosini qadrlaydigan avlodni tarbiyalagan bo'lamiz. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda tarbiyachining shaxsiy namunasi eng asosiy o'rinni egallaydi. Tarbiyachining kiyinish madaniyati, muomala tili va milliy an'analarga bo'lgan munosabati bolalar uchun jonli andozadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.
3. Pedagogik tadqiqotlar va metodik qo'llanmalar.
4. Sh. Shodmonova. (2008). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya".
5. Ismatova, N. B. (2020). "Inovatsionnye metody v doshkolnom obrazovanii". Journal of Academic Research in Educational Sciences.
6. Nishonova Z.T. "Psixologik maslahat". Toshkent, 2010.
7. Shayxova M. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". O'quv qo'llanma, 2018.